



**FARIDA AFRO‘Z SHE‘RIYATINING LINGVOPOETIK
XUSUSIYATLARI**

Toxirjonova Moxlaroy Jahongir qizi

NamDPI bakalavr 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar

Ibragimova Iroda Artikmashrabovna

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

NamDPI katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Farida Afro‘z she‘riyati, undagi til va poetikaning uyg‘unligi, shuningdek, shoira she‘rlarida tashbeh yaratishda tabiat unsurlaridan mohirona foydalanish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: lirik qahramon, asl she‘riyat, tabiat unsurlari.

Zamonaviy o‘zbek she‘riyatining yorqin namoyandasi, serqirra va sermahsul ijodkor Farida Afro‘z (Bo‘tayeva Farida) 1956-yil 5-martda Qo‘qon shahrida tavallud topgan. U 1994-yildan hozirga qadar O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida faoliyat yuritib kelmoqda. Shoiraning “Ko‘zim manim”, “Tunlar isyoni”, “Iztirob ko‘ylagi”, “Qirq kokilligim”, “Qurbonjon dodxoh”, “O‘zimdan o‘zingacha”, “Poka yest na zemle razluka...”, “Ot Faridi Afroz” (Moskva), “Gun Aydin” (Istanbul), “Ushshoq”, “Tasbeh”, “O‘sha kun — bugundir” singari she‘riy to‘plamlari chop etilgan. She‘rlari rus, turk, xitoy, koreys, ingliz, nemis, fransuz, fors, uyg‘ur, ozarbayjon va gagauz kabi o‘ndan ortiq tillarga tarjima qilingan.

Buyuk ijodkor Erkin Vohidov: “She‘r shoir qalbida tug‘ilgan hayotiy tuyg‘ularni ifoda qiladi va shu bilan o‘quvchi yuragini rom qiladi. Shoir o‘zi yonmasa, boshqalarni yondirolmaydi, qalb hislarida otash bo‘lmasa, boshqa qalblarga harorat berolmaydi”, deya ta’kidlagan edi. Darhaqiqat, Farida Afro‘z ham ana shunday otash qalbli, go‘zal she‘rlari va ta’sirchan satrlari bilan kishi qalbini rom etuvchi betakror shoiradir. Ko‘plab ijodkorlarda bo‘lgani kabi, shoira ijodining ham bosh mavzularidan biri muhabbatdir. Shuningdek, uning ijodida insonning ichki kechinmalari, hissiyotlari, ayol qalbining nozik tuyg‘ulari, ba‘zan esa muhabbat mavzusiga zid ravishda hijron, ayriliq iztiroblari va o‘zini taqdir ixtiyoriga topshirish holatlari aks etgan she‘rlar ham mavjud. Xususan:

Sog‘ina, sog‘ina, sog‘inmay qo‘ydim,
Endi menga baribir kelsang, kelmasang,
Qo‘lingdan kelsa gar osmonni tashla,
Endi menga baribir sevsang, sevmasang.



Har qanday inson, ayniqsa, ijod kishisi bunday holga kelishi uchun ishq savdosida ko‘p qiyinchiliklarni boshdan kechirgan, iztiroblar bilan kurasha-kurasha oxir-oqibat o‘zini butunicha qismatga topshirgan bo‘lishi mumkin. Ayol qalbining kuychisi Farida Afro‘z ham hayoti davomida bunday mashaqqatlarga duch kelgan bo‘lishi tabiiy. Lekin adabiyotshunos Dilmurod Quronov: “Ko‘pincha lirik qahramon deganda muallif tushuniladiki, bu har doim ham to‘g‘ri bo‘lavermaydi. Zero, shoir o‘zining kechinmalarini tasvirlashi ham, o‘zganing ruhiyatiga kirgan holda o‘sha o‘zga shaxs kechinmalarini tasvirlashi ham mumkin”, deya ta’kidlaydi. Xuddi shu ma’noda buyuk rus yozuvchisi Lev Tolstoyning fikrlarini ham keltirish mumkin. Uning fikricha, har bir inson qalbida mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan barcha qalblar imkoniyat tarzida mavjuddir; shunga ko‘ra, shoir o‘zganing holatiga kirishi, ma’lum hayotiy vaziyatdagi istalgan insonning kechinmalarini his qilishi ham mumkin. Har qanday asarni o‘qigan kitobxon undagi voqealar va kechinmalarni, garchi ularni o‘z hayotida boshdan kechirmagan bo‘lsa-da, yurakdan his eta olishi yuqorida keltirilgan fikrlarning yaqqol dalilidir.

Shoira Farida Afro‘z ijodida muhabbatning poymol etilishi natijasida yuzaga kelgan iztirobli satrlar ko‘plab uchraydi:

Mayli, men ketaman, qaytish yo‘q aslo,
Qaytar yo‘llaringa chimlar bosilgan.
Xo‘rlikning daraxti osmonday baland,
Shoxlariga salanglab dorlar osilgan,
Marjonimga payvand!

Qozoqboy Yo‘ldoshev aytganidek: “Asl she’riyat yo muhabbat yoki nafratdan tug‘iladi”. Ya’ni haqiqiy she’r oddiy so‘z o‘yini emas, balki inson qalbining eng kuchli tuyg‘ulari — muhabbat va nafratdan tug‘iladi. Farida Afro‘z ijodining asosini tashkil etuvchi mana shu ikki tushuncha uning she’riyatiga o‘ziga xos ruh va teranlik bag‘ishlaydi. Uning qaynoq satrlarida goh mehr va sog‘inchning iliq nafasi sezilsa, goh iztirob va norozilikning achchiq nafasi ufuradi. Shu sababli uning she’rlari shunchaki o‘qilmaydi, balki yurakdan his etiladi.

Farida Afro‘z ijodining yana bir o‘ziga xos jihati shundaki, shoira she’rlarining badiiyatini oshirish, obrazlilikni kuchaytirish va ta’sir doirasini yanada yuksaltirish maqsadida tabiat unsurlaridan, ayniqsa, tabiat hodisalaridan mohirona foydalangan holda tashbehlar yaratadi.

Ruh shamoli tanni qaqshatdi,
Chaqmoq vujud olov sachratdi,
Kecha yoqqan yomg‘ir charchatdi,
Kel, bugunni bayram qilaylik.



Ushbu misralarda inson turli ruhiy bosimlar va charchoqlar ichida yashasa-da, hayotdan zavq olishga, “bugunni bayram qilish”ga intilishi kerakligi ifodalanadi. Shoir “ruh shamoli”, “chaqmoq vujud”, “kecha yoqqan yomg‘ir” kabi tabiat unsurlariga tayangan obrazlar orqali she‘rning o‘qiluvchanligi va ta‘sir kuchini oshiradi. Bunday ohorli topilmalar va o‘xshatishlar shoir ijodida ko‘plab uchraydi:

Charchadim yashirib og‘riqlarimni,
Ichimga sig‘maydi endi bu daraxt.
Qo‘porib bo‘lmaydi tomirlarini,
Jon esa bezabon, jon savil karaxt.

Ushbu misralarda lirik qahramonning uzoq yillar davomida yashirib kelayotgan dardlari daraxtga o‘xshatiladi. Bu obraz dardning naqadar ulkan va nechog‘li chuqur ildiz otganini bildiradi. Ayniqsa, “Qo‘porib bo‘lmaydi tomirlarini” misrasi orqali “dard daraxti” yillar o‘tgan sayin ruhiyatni tobora chuqurroq egallagani anglashiladi. Buyuk nemis yozuvchisi Erix Mariya Remark aytganidek: “Eng og‘ir dard — bu ichingda jim yotgan darddir”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. — Toshkent: Fan, 2007.
2. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
3. Bo‘tayeve F. Ko‘zim manim. — Toshkent: Sharq, 1999.
4. Bo‘tayeve F. Saylanma. 1-jild. O‘sha kun — bugundir. — Toshkent: Sharq, 2003.